

Alifbe

1

ALIFBE



novda
edutainment



N.K. Azizova

Alifbe

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023

[@ELEKTRON_DARSLIKBOT](#) dan yuklab olindi.

UO'K 373.3.016:811.512.133(075.3)

KBK 74.202.4

81.2Y36-922

A 36

N.K. Azizova

Alifbe darsligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik / N.K. Azizova – Toshkent:
"Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

M.M. Umarova –

Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabi
1 toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;



M.I. Xujayeva –

Toshkent shahri 142-umumiy o'rta ta'lim maktabi
1 toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar



**Yangi mavzu
bayoni**



**Savollarga
javob bering**



**O'ylab
ko'ring**



Og'zaki topshiriq



Birlashtiring



Tinglang



Toping



Bu qiziq



Yodda saqlang



**Ko'rsatkich
bo'ylab o'qing**



**E'tibor bilan
o'qing**



Kim topqir



**O'qishni biladigan
o'quvchilarga**



Dars yakuni

Qadrli o'quvchi!

Alifbe – sizning birinchi va eng sevimli kitobingiz. Bu kitob sizga sehrlı tovush va harflar olami, so'zlar dunyosi haqida ko'p narsalarni gapirib beradi. Siz bu kitobdan o'qishni, yozishni o'rganib olasiz. Shu bilan birgalikda qiziqarli topshiriqlar bajarasiz. O'rganganlaringiz sizga keyingi bilimlarni egallashingizda yo'lchi yulduz bo'ladi. Sizga omad yor bo'lsin!



Salom, maktab

Yetti yoshga to'ldim men,
Maktab sari keldim men.
Salom, maktab, jon maktab,
Quchog'ingga ol, maktab.

O'zim yaxshi bolaman,
Eng a'lochi bo'laman.
Ona yurtim dilbandi,
Istiqlol farzandiman.


Zahro Hasanova



O'zbekiston

Aziz o'lkam, o'zing ko'rkam,
Chinorlaring bizdek o'ktam.
Tosh ham gullar tuprog'ingda,
Mehrining qaynar bulog'ingda.
Qo'li ochiq bog'laring ko'p,
G'aznaga kon tog'laring ko'p.
Yashnamoqda qishloq, shahring,
Yaxshilikka to'liq bag'ring.

Anvar Obidjon







O'quvchimga tilaklarim

Men shunday kitob –
Betlarim – oftob.
Men – senga o'rtoq,
O'qishda hamroh.

O'rganib oz-oz,
"Vatan" so'zin yoz.
O'qigin, tolma,
Orqada qolma!

Kavsar Turdiyeva



Soʻz va gap



– bitta soʻzni ifodalaydi.



Ortiqchasini toping. Qolgan narsalarni bir soʻz bilan ifodalang.
















 ?

 .


So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish



Oilam

Oila desam, biri tan,
 Biri jondek ko'rinar.
 Mo'jazgina mustahkam,
 Bir vatandek ko'rinar.
 Oila – otam, oila – onam,
 Oila – ukam ko'zlari.
 Oila – singlim, oila – bobom,
 Buvijonim so'zlari.
 Men ulardan o'zimni
 Tasavvur etmam ayro.
 Oila – kichik vatanim,
 Men jilg'aman, u – daryo.


Zahro Hasanova

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

Alifbe qahramonlari bilan tanishuv



Mening ismim Akmal.
Men atrofimizdagi olamni
o'rganishga qiziqaman.




Aziza



Mening ismim Aziza. Men
matematika va sportni yaxshi
ko'raman.

Biz Akmal bilan egizaklarmiz.
Men qiziquvchan va quvnoq
Madinaman.

Madina



Jasur



Men esa Jasurman. Men
musiqa asboblari chalishni
bilaman.



Tovush

Unli tovush



--	--	--	--	--

Undosh tovush



--	--	--	--	--



Bo'g'inlarga bo'ling va bir so'z bilan ifodalang.



--	--	--



--	--	--



--	--	--



--	--	--	--



--	--	--



--	--	--



--	--	--



--	--	--



--	--	--



Yer tagida yetilar,
Ko'p vitaminli bo'lar.
Shirasi bor, lek tuzsiz,
Palov pishmaydi usiz.



Kech kuzgacha uzilmas,
To yozgacha buzilmas.
Derlar: ming dardga davo,
Uning nomidir...





Qo'nadi ming bir gulga,
Sog'liq ulashar elga.



--	--	--



--	--	--



--	--



--	--	--



--	--	--






--	--	--	--



[o] tovushi cho'ziq talaffuz qilinadi. Shuning uchun u **unli** tovush. Lablaringizni biroz oldinga chiqarib ayting: [O-o-o]




"O"ning shakli o'xshaydi,
To'lin oyga, quyoshga.
Velosiped g'ildiragi,
Qovun yoki koptokka.



**Oltin
tarpuz**





_____ .
 _____ .



Dunyodagi eng aziz inson,
 "Kim u?" deya so'rasha bizdan.
 "Ona" deymiz hammamiz shu chog',
 Ha, shu so'zda, menman ilk harf.







[t] tovushi qisqa aytiladi. Shuning uchun u **undosh** tovush. Tishlar bir-biriga yaqinlashadi. Havo og'izga kelgach, shovqin bilan talaffuz qilinadi.



Qalpog'i bor boshida "T"ning, Qor-yomg'irni pisand qilmaydi. Agar uni olib qo'ysangiz, Birga o'xshab qolar, bo'lmaydi.



Tez aytish

Turna tipratikanni turtdimi?
Tipratikan turnani turtdimi?

Tez aytgin-u, tez gapir,
Tez aytganga bir patir.



[a] tovushi – unli tovush.
Og'zingizni katta ochib, erkin
talaffuz qiling: [A-a-a-a]




Hamma alifbo asli
“A” bilan boshlanadi.
Akmal, Aziza, Ali
Men bilan boshlanadi.



A	a	a	At	at
a	A	a	Ta	ta
a	A	A	Oa	oa

a-a-a-a-a

a-a-a-a-a






o	a

t	



Qaysi ari "A" harflari orqali gulzorga tezroq yeta oladi?



Alpqomat Alpomish,
Bo'lsin ko'p senga olqish.
Asl, alp o'g'lonisan,
O'zbek elin dostonisan.





[n] tovushi – undosh tovush.
Lablar biroz ochiq. Til yuqori
tishlarga tegadi. Havo og'izga
kelgach, burundan chiqariladi.



Uni yasamoq oson,
Diqqat bilan qaragin.
Ikki ustun orasiga,
Qiya ustun tiragin.




n	N	n	No	na	on
N	n	N	Na	an	ta
n	N	n	No	no	to

o	na
o	ta
a	na




10




o-ta
o-na



a-na



non
ot
no-ta



o	a

t	n



_____.

_____.



o-na	ot	a-na
o-ta	non	o-na
a-na	on	o-ta

Ona, ana non.
Ota, non _____.
Non _____.



Boshqotirmani yeching.

N +  6 + n  + na



Rizqimiz manbai don,
"N"dan boshlanar non ham.
Nonni uvol qilsangiz,
Xafa bo'laman men ham.





[i] tovushi – **unli** tovush.
Lablaringizni jilmaygan
holatdagidek, tishlarni bir-biriga
yaqinlashtirib ayting: “**I-i-i**”



Menga juda o'xshagani
Simyog'och va terakdir.
Ikrom, Ilhom so'zlarini
Mendan boshlash kerakdir.



I	i	i	It	in	ti
i	i	I	Ta	it	na
I	I	I	Ni	ni	on


i-i-i-i-i

i-i-i-i-i

in	ot	ana	ona	nota
it	on	non	ota	nina




2



Ko'rinishi kalta arqon,
Qo'l-oyoqsiz chopar chaqqon.



Kiygan ko'ylagi o'ziga foydasiz.



o	a
i	

[illegible]

in	on	i-ni	ni-na	ni-na-ni
it	ot	i-ti	no-ta	in-na-na



It in [].

innana .



Soʻzlardan bir harfni oʻzgartirib, yangi soʻz
hosil qiling.

Ot, it, ota, ana, ona, on



**Ikki
do'st**





[l] tovushi – undosh tovush.
Tishlar bir-biriga yaqinlashgan. Til
uchi yuqori tishlar orqasida. Havo
qisman burundan chiqariladi.



Boltacha o'tin yorib,
So'ngra uyda dam olar.
"L"ga o'xshar ekan deb,
Bolalar eslab qolar.



la li il lo ol lin lan

il	til	ol-ti	to-la	A-li
ol	tol	al-la	lo-la	Lo-la
la	nol	o-i-la	no-la	No-i-la




Qush nomlari orasida "L" tovushi ishtirok
etganlarini toping.



A-li
Lo-la
No-i-la

} → a-na

→ tol
→ nol
→ til-la
→ ol-ti
→ to-la



o	a
i	

t	n
l	



al	nol	ol-tin	lo-la	No-i-la
li	lol	to-la	no-la	Lo-la

O-ta, a-na ol-ti-ta non. Lo-la, non-ni ol.
Ona, ana , ana .



Chizma asosida gaplar tuzing.



Ali, Lola .

Lola, .

Ali, ?





[m] tovushi – undosh tovush.
Lablaringizni kuchsiz birlashtiring.
Tishlaringiz ozgina ochiq holda
tovushni talaffuz qiling.



Yozolmaysiz mensiz maymunni,
Muzqaymoq ham yozilmas mensiz.
“Mu-u” deyishga yordam bermasam,
Yurar edi sigir ham unsiz.




ma	tom	ol-ma	o-lim	Na-i-ma
mi	ilm	ma-na	o-lam	O-mon
mo	mol	ni-ma	a-lam	Man-non

ma mi im mo nom min man




Na-im
O-li-ma
O-mi-na



ma-na

i-lon
ol-ma
ni-na
o-lim



**Mitti
qayon**





o	a
i	

t	n
l	m



Ona, ma-na



O-mon, ana mal-la , ana



O-lim,  ni olma.  ni ol.



Yer ostida, yer ustida,
Bir transport tez yurar.
Elektrli relsi bor,
Odamlar kutib turar.





[u] tovushi – unli tovush.
Lablaringizni oldinga
naychaga o'xshatib chiqargan
holda talaffuz qiling: “U-u-u”



O'rtasiga nuqta qo'ysak,
O'xshaydi qulf qorniga.
“U” bizdan ranjiydi-da,
Kalit suqsak burniga.



U	u	u	Un	tu	ut
u	U	u	Ul	nu	un
u	U	U	Um	mu	um

u-u-u-u-u

u-u-u-u-u

mu um tu un lu nun tut

un	uni	unum	tutun	
in	lol	til	mum	tu-man
on	tol	tun	un-li	um-mon
un	tut	min	u-nut	um-mat




nima?
 limon.
 malina.



Ana u nima?
U ini.



nima?



--	--	--	--



O-lim
O-mi-na

→ a-na

tu-tun
tu-man
um-mon

Um-mat
Na-i-ma

→ ma-na

→ non
→ li-mon

Olima, Omon, Lola .

Olima .

Omon .



o	a
i	u


[illegible]



[d] tovushi – undosh tovush.
Lablar biroz ochiq. Tilning uchini
yuqori tishlarga tirab tovushni
talaffuz qiling.



Delfin – mohir dengizchi,
Dono, aqlli biram.
Suvdan sakrab chiqsa-chi,
“D”ga o‘xshar shakli ham.



ud

ado

odam

dono

da

dil

do-no

o-dim

Do-no

di

don

da-da

o-dil

Da-min

od

dum

da-la

o-dat

A-do-lat

din

don

dod

dum

dul

dat

did

dil



Dalada

Dalada



Otam daladan



oladi.



donidan un



dan non

Non



Do'st do'stga boqar,
Suv soyga oqar.

Do'st do'stlikda toblanar,
Bilim – tortishuvda.



o	a
i	u


t	n
l	m
d	



do	dil	dod	o-dim	O-dil
du	dim	did	do-im	O-di-na
id	dam	duo	dom-la	Ma-di-na



Ikkinchi bo'g'inni topib, so'z hosil qiling.



Chizmaga mos so'zni rasmdan toping.

--	--	--	--	--	--	--	--





[k] tovushi – undosh tovush.
Lablaringizni biroz oching.
Tilingizni tishlarga tekkizmay
talaffuz qiling.



Kitobda ko'rdim bir harf,
Bir qo'lini ko'tarib, oyog'in kerib turar.
"Kimsan o'zing?" – deb so'rasak,
"K" bo'laman", – deb aytar.






ku		aka	ikki	kokil
ka	kim	ki-no	ka-lit	Ko-mil
ki	kon	ka-nal	ka-mon	Ak-mal
ok	kun	kat-ta	kak-lik	Ka-mo-la

kud kim kat kit kun duk kul kut



Malik bilan Kamol – aka-uka.
Malik Kamoldan katta. Kim aka?
Malik – aka. U .





Ka-mol
Ko-mi-la
Ko-mil

Ko-mi-la

Ko-mil

a-na

ku-lol

kak-ku

kak-lik

ka-ka-du

ka-ma-lak



– Nima?

— Kit.



– Kim?

– Malika.



— ?

—



O'rganar avval odob,
Kitob o'qigan bola.
Yuzi bo'ladi oftob,
Kitob o'qigan bola.





[o'] tovushi – unli tovush.
Lablaringizni oldinga
naychaga o'xshab chiqaring.
Tishlarni lablar bilan bekitib
talaffuz qiling: "O'-o'-o'"



Belgimni olsangiz gar,
O'zim "O"ga o'xshayman.
Otda belgi bo'lsa gar,
Maysa, o't bo'lib qolar.



o'n	ko'l	ko'k	o'-tin	to'-kin
o't	mo'l	do'l	to'-la	mo'-min
do'	to'n	to'-ti	to'n-ka	do'-la-na


o't mo' o'n do'k ko'n ko'd do'l ko'l



- Aka, ana u nima?
- O'ktam, u katta ko'm-ko'k ko'l.
- Unda ana u nima?
- U .
-  ko'lda nima ?
- U ko'lda .

Mana, katta ko'm-ko'k ko'l.
Ko'lda  .






o	a
i	u
o'	

t	n
l	m
d	k



ko'l	lo'n-da	ko'm-ko'k	ko'l-mak
mo'l	o'n-ta	ko'k-lam	ka-ma-lak



O'lkam





[b] tovushi – undosh tovush.
Lablaringizni bir-biriga
biriqtiring. Havo chiqishi bilan
birdaniga ochib, tovush hosil
qiling.



Baliq suvda suzadi,
Go'shti maza bo'ladi.
Bodring, banan so'zlari
"B" harfidan boshlanadi.



bu	bo'l	bi-no	bi-lim	bu-lut
ba	bol	bo-la	bi-lan	bo-dom
ob	bob	bu-ta	bi-lak	bom-dod

tab

lab

bil

bo'l

but

bol

bob



Bu – Bilol. U bilimli bola. U  da
bilim oladi. Bilol  _____.


Mana bu  Bu  li  _____.

Mana bu  . Unda  _____.



**Bo'ri bilan
tulki**





o	a
i	u
o'	

t	n
l	m
d	k
b	


bo-bo
bo-la

o-dob
o-bod

ba-ton
ta-bib

bi-no-an
ba-ta-mom

O-na bi-lan bo-la,  bi-lan lo-la.



Alla

Alla, bolam, alla,
Tili bolim, alla.





[e] tovushi – unli tovush.
Lablaringizni kulgan, oldingi
tishlar ko'rinib turgan holatda
talaffuz qiling: "E-e-e-e"



Hovlidagi narvoncha
Birdan sinib qolibdi.
Bitta ustuni tushib,
"E" harfiga aylanibdi.



el
en
ek

bek
kel
men

e-kin
e-tik
e-lak

ke-ma
be-da
de-ma

el-lik
e-tak
me-dal

el

ne

et

med

kel

deb


bel




- Malika eladi.
- Unni nimada eladi?
- Buni Otabek biladi.
- Unni da eladi.



Bu qaysi ertak qahramonlari?





o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	



bet
bel
ket

te-kin
me-bel
me-tall

be-kat
ke-lin
ket-mon

es-da-lik
be-ma-lol
be-da-na



Ota-bek bilan El-bek – aka-uka.

Ota-bek ma-te-ma-ti-ka _____.

U a-ka-de-mik _____. U _____.

Ki-tob bi-lim man-ba-i, – deb bi-la-di.

El-bek-ka _____ li _____.

U _____ ni _____.



- Ana keldi.
- Kemada Elbek keldi.
- Elbek nima olib keldi?
- Elbek olib keldi.






[y] tovushi – undosh tovush.
Tilingizni pastki kurak
tishlarga tekkizib, tovushni
talaffuz qiling.



Asli juda ko'p bo'lar,
Daraxtlarda "Y" harfi.
Ham cho'zmani eslatar,
Ayri shox – shoxlar ayri.



yil
yel
yo'l

yon
yod
yem

yuk
yoy
yum

yel-ka
yet-ti
ya-na

yo'-lak
ye-lim
ya-kun

ye

ey


iy

oy

yeb

bey

yom



Raqamlarni to'g'ri ketma-ketlikda qo'yib, so'zlarni
toping.

3	4	2	5	1
y	i	i	k	k


1	3	4	2	6	5
l	y	l	a	k	a

2	1	3	5	4
e	y	l	m	i



Yelkanli kema

Bo-bom kat-ta yel-kan-li ke-ma o-lib kel-di.
Men u bi-lan o'y-nay-man. "Yel-kan-li ke-ma yel-
ka-ni ma-to-dan ti-ki-la-di", – de-di bo-bom.



oy
o'y
uy

moy
to'y
boy

oyi
aya
uya

tu-ya
bo'-ya
de-ya

yo'l-yo'l
yak-dil
yak-ka

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y

Kim odobli?

– Oyi, Laylo katta yo'lda o'ynaydi. Oydin katta yo'lda o'ynamaydi. “Akam, ukam bilan maydonda o'ynayman”, – deydi u. – Oyi, Oydin odoblimi yoki Laylo odobli?





[r] tovushi – undosh tovush.
Tishlar bir-biriga yaqinlashib, til
uchi ko'tariladi va titraydi. Natijada
havo tebranib, tovush hosil qiladi.



– Randa, romda “R” tovushi,
Uni qanday yozaman?

– Bir qo'lni belga qo'yib,
Bir oyoqni tiragin,
“R”ga o'xshab qolding sen,
Bir oynaga qaragin.



or
bir
nur

yurt
mard
dur

a-tir
ya-ra
ar-ra

ra-di-o
do-i-ra
mi-no-ra

Ab-ror
Bo-bur
No-di-ra

re

ar

ur

ru

run

rim

lor



– Bu kim?

– Bu _____.

U  yasaydi.



– Bu kim?

– Bu _____.

U  bilan _____.



– Bu nima?

– Bu robot.

U bilimdon




– Bu nima?

– Bu rubob.

Unda kuy _____.





Di-yo-ra
No-dir
A-no-ra

ma-na bu

ran-da

romb

te-mir

o'r-dak

o'r-mon

Birdamlik

Akrom, Karim, Barno, Lobar bir bo'lib,
raketa . Akrom karton olib keldi.
Barno ulardan raketa bo'laklarini tayyorladi.
Karim bilan Lobar bu bo'laklarni yelimpladilar.
Bolalar birdamlik katta ekanini bildilar.



o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	





[q] tovushi – undosh tovush.
Talaffuz qilganingizda til tebranib,
o'pkadan chiqayotgan havo oqimi
portlab tovush hosil bo'ladi.



“O” va “O”ga o'xshar shaklim,
Ammo farqim bor jindek,
Mening asosiy farqim,
Dumim bor quyonchadek.



oq
qir
qor

qur
yuq
to'q

qo-ra
qa-ra
qo'-ra

qa-tiq
qu-loq
qa-lam

o'r-toq
qay-moq
qar-moq

qe

qu

iq

oq

qo'n

req

qat



El qadrini el bilar,
qadrini – yer.



Ilm – oqar buloq,
Ilm – yonar



Qizil kitob

Qizil kitob – noyob
kitob. Unda yo'qolib
borayotgan hayvonlar,
qushlar, o'simliklar nomlari
keltiriladi.



--	--	--	--



aql	qol	qalb	iq-bol	qu-duq
toq	yo'q	u-loq	ni-qob	tir-noq
yoq	qoq	bu-loq	ir-moq	qa-no-at



Tez aytish

Qora qarg'a qorga qo'ndi,
Qorni cho'qib "qag'" – deb qo'ydi.

Qirq quyon oq, qirq biri qora.



Ko'lmakdagi qurbaqa,
Qiladilar " ".

Kitobim o'qitmadi,
Kuyini tindirmadi.

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q





[s] tovushi – undosh tovush.
S tovushining talaffuzida lablar
kulgan holatda, tishlar bir-biriga
yaqinlashib ko‘rinib turadi.



Ilmoqchaga o‘xshatib,
“S” bo‘ynini egadi,
Davom ettirsa uni,
Sakkiz bo‘lib qoladi.



sal
sel
sen

sut
so‘l
so‘m

sirk
sabr
sayr

sa-bo
sa-mo
sa-bab

sa-riq
sal-qin
sak-son

sas

sin

so'm

som

sut

sen

tus




Tilimda totli kalom,
Udir salom, assalom.
Qo‘lim ko‘ksimda deyman,
Yurtim salom, assalom.



Samarqand

Samarqand – dunyoga mashhur shahar.
U yerda qadimiy obidalar ko‘p.



sir
sut
sim

sil-liq
sa-riq
mu-nis

san-diq
siy-rak
sa-no-at

as-sa-lom
sa-do-qat
sa-rim-soq

Sirkda

Men oilam bilan sirkka bordim. U yerda arslon, to'ti, maymun, yo'lbars, it, kabutarni ko'rdim. Arslon bilan yo'lbars to'siqdan sakrab o'tdi, to'ti bilan it sonlarni sanadi. Maymun esa odamlarni kuldirdi. Sirkdan men mamnun bo'lib qaytdim.

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	





[z] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzida lablar kulgi holatida.
Tishlar ko'rinib, bir-biriga
yaqinlashadi. Tovush tebranib
hosil bo'ladi.



Zinada turgan o'rtoq,
Senga bordir bir so'roq.
"N"ni qanday ushlasang,
"Z"ga o'xshaydi ozroq?



zal
zeb

zar
zor

zabt
zulum

zi-rak
zo'r

zum
ziy-rak

ze

zil

zul

zam

zot

zez

zo'r



"Z" tovushi bor so'zni toping.



Oz so'zla – soz so'zla.

Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdan qayt.

Ariqni suv bezar, odamni – so'z.

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.



zar
zarb
zar-ba

za-rar
za-min
za-mon

zi-na
zi-ra
zi-rak

za-rar
ziy-nat
zam-bil

zul-mat
zum-rad
zi-yo-da

zi-yo-li
za-bar-dast
zi-na-po-ya



Rasmlar orasidan topishmoq javobini toping.

Oz qo'ysa, "sol", – deydi.
Ortiq qo'ysa, "ol", – deydi.



O'zbekiston

- O'zbekiston qanday diyor?
- O'zbekiston – qadimiy diyor.

O'zbekistonda ulkan , ko'rkam



qadimiy



bor. O'zbekistonda do'stlik,

_____ birodarlik qadrlanadi.

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z





[v] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda pastki lab yuqori tish
qirralariga yaqinlashadi. Havo
tor bo'shliqdan tebranib o'tib,
tovush hosil qiladi.



“V”ga qarab deymiz varrak,
Bordir bizda ezgu tilak.
Va'daga kerakdir vafo,
Vazifani bajar doimo.



va
voy

vazn
vaqt

va-tan
vo-diy

yov
zavq

sa-vol
var-rak

vel

vok

viy

vul

vo'

nav

suv



Toza qilib badanni,
Yordam qilar u doim.
Semirtirib u tanni,
O'zi ozar muloyim.



Munavvar musavvir

Munavvar buvasidan musavvir kim, deb
so'radi. Buvasi musavvir rassom, deb aytdi.
Munavvar katta bo'lsam, buyuk musavvir
bo'laman, deb niyat qildi.





bu-vi
bu-va
nov-voy
nov-vot
mu-sav-vir
mu-nav-var
va-si-yat
ne-va-ra

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	



So'zlarda [V] tovushi ishtirok etgan rasmni toping.



1. Rasmda qayer tasviri?
2. U yerda nima qilinadi?
3. Vokzalda nimalar qatnaydi?
4. Vokzalni metro desa bo'ladimi?





[p] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda avval lablar
jipslashgan bo'ladi, so'ngra
havoning tez yorib chiqishi
natijasida ochiladi.



Parpi poyezdda kelar,
"P" kabi qo'li belida.
Vagonda to'la pilla,
Ishonmasang, qara-da.



pol
par
pul

kap-tar
pil-la
pal-la

pay-poq
qo'l-qop
qal-poq

pa-zan-da
poy-de-vor
po-yab-zal

ip

poy

pul

par

pay

po'm

pun



Oppoqqina, par emas,
Momiqqina, qor emas.




Pak-pakana bo'yi bor,
Yetti qavat to'ni bor.



Oldin edi nuqul,
 bo'ldi butkul.

Yorilib birdan ,
Yana bo'ldi oppoq.



**Xurmacha
polvon**





pat	pa-ri
pa-tir	pa-lov
po-liz	pi-yoz
po-ya	pi-yo-la

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p



--	--	--	--

i-pak	por-loq	pos-bon	pay-vand
po-ya	pat-nis	po-la-pon	ka-pa-lak

Ipak qurti

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Uzunzorda ipak qurti va kapalak bor ekan. Kapalak qanotlari turli-tuman tovlanarkan. Uni kuzatib, ipak qurti kapalakka rosa qilibdi.

Ipak qurti ipak o'rayveribdi, o'rayveribdi. Bir kuni ertalab qarasa, endi u ipak qurti emas, kapalak ekan. Keyin u gulzor tomon qanot qoqib ketibdi.





[g] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda lablar biroz ochiq, til
uchi pastga tushgan va pastki
kurak tishlaridan itarilgan holda
tebranib tovush hosil bo'ladi.



Go'zal doira shaklim,
Gorilla etdi yarim.
"G" bo'ldi endi harfim,
Shu mening so'nggi gapim.



gul
gap

gerb
ga-la

go'-zal
tug-ma

gul-barg
gum-baz

gi

ga

og

gaz

gid

go'

gen



Boshqotirmada yashiringan so'zni toping.



gul



g u r u ch – donli ekin.

U vitaminlarga boy bo'lib, insonga
quvvat beradi.



gul	gi-lam
gul-don	gi-los
gul-zor	kul-gi

o	a
i	u
o'	e

tug	la-gan	ga-ze-ta	Gul-no-za
gaz	kul-gi	ge-o-log	Gul-zo-da
gar	gav-da	gu-lis-ton	Gul-sa-nam

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	

Tez aytish

Guldasta – gullardan dasta.

Gulzorda

Aziza gullarni yoqtiradi. U onasi va akasi bilan birgalikda gulzorga atirgul va lola ekdi. Aziza gullarga o'z vaqtida suv quydi. Tez kunda gullar oq, qizil, sariq bo'lib gulladi. Aziza gullarni ko'rib quvondi. U o'z gullaridan onasiga guldasta yasadi.





[g'] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda lablar biroz ochiq,
til uchi ko'tarilgan. Tilning orqa
tomonida tovush tebranib hosil
bo'ladi.



"G"ni yozish qiyinmas,
Biroz e'tibor bergil.

"G" harfining qoshiga,
Qo'ysang teskari vergul.



g'oz
g'or

dog'
bog'

g'o'-la
to-g'a

g'al-la
g'ur-ra

bog'-bon
bug'-doy

g'o

g'a

eg'

og'

g'oy

g'ep

g'ur



no

zo

to

g'o

ra

g'o

yib

lib

"G'o-g'o"laydi g'oz,
Kuylar mayin ovoz:
"O'ynaylik birga,
Kuyaylik birga.
Bu bog', dalamizda,
Quvaylik birga".





gʻoz	gʻarb
gʻo-ya	gʻarq
gʻoʻ-ra	gʻo-lib
gʻoʻ-za	gʻo-yib

o	a
i	u
oʻ	e



--	--	--	--

gʻam-gin	to-gʻo-ra	gʻa-ro-yib
gʻal-la-kor	no-gʻo-ra	gʻa-ni-mat



Tez aytish

Gʻani gʻildirakni gʻizillatib gʻildiratdi.



Gʻalaba

Gʻulom bilan Margʻuba sportni yoqtiradilar. Gʻulom boks, Margʻuba esa gimnastika toʻgaragiga qatnaydi. Ular bu yilgi musobaqaga koʻp tayyorgarlik koʻrdilar. Musobaqa yakunida ular gʻoliblikni qoʻlga kiritib, gʻalaba bilan uyga qaytdilar.



t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	gʻ





[h] tovushi – undosh tovush. Til pastki kurak tishlarning orqasida turadi. Havo tomoqdan qirilmay, yumshoq chiqadi.



Narvonchaga o'xshaydi
"H" harfiga qarasak.
Hakimjon handalak yer,
Hoshimjon chalar hushtak.



ha
hal
haq

his
har
ham

hav-za
ho'-kiz
ha-vas

ho-di-sa
hi-mo-ya
ha-vo-la

ho

ha

uh

hu

oh

ho'z

hog



Sehrli so'zlar

Bolalar, tilimizda sehrli so'zlar borligini bilasizmi? Ular "Assalomu alaykum", "Rahmat", "Uzr", "Vaalaykum assalom", "Marhamat" kabi so'zlardir. Bu so'zlar sehrli ekanligiga sabab, ularni aytganda inson yuzida tabassum paydo bo'ladi.

Rahmat



Marhamat



1. Siz ham sehrli so'zlarni bilasizmi?
2. Eng ko'p qaysi sehrli so'zni qo'llaysiz?



hukm	hu-quq
hu-nar	hol-va

o	a
i	u
o'	e

ha-vo	ha-yot	hik-mat	hi-so-bot
ha-yo	ha-yit	hay-rat	hu-ku-mat

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	



- Harakat, harakatda barakat.
- Hunar, hunardan unar.
- Halol mehnat – mo'l daromad.
- Har kim ekkani o'rar.

Hayvonot bog'i

Biz bugun oilamiz bilan
birga hayvonot bog'iga bordik.
Hayvonot bog'i katta ekan.
U yerda timsoh, yo'lbars,
bo'ri, tulki, ayiq, kiyik kabi
hayvonlarni ko'rdik.





[sh] tovushi – undosh tovush.
Tishlar bir-biriga yaqinlashgan.
Tilning uchini biroz ko'tarib, pastki
kurak tishlarga tiragan holda ayting.



Shsh

"S" do'stlashdi "H" bilan,
Ko'ring shodligin biram.
Shaxmat, shashka so'zlarida
Ajralmas ular hech ham.



shi-mol
shi-rin

sha-kar
she-rik

shov-qin
shar-bat

shu

sha




osh

ush

she

sho'

shun



Buyuk ipak yo'li – Sharq va G'arb
mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan karvon yo'li.



shim
shi-mol
sham
sha-mol
shar
sha-kar

o	a
i	u
o'	e



Tushirib qoldirilgan hafta kunlarini toping.

Yakshanba

Payshanba

?

Shanba

?

Seshanba

Dushanba

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh

Qish

O'lkamizga qish fasli kirib keldi. Qishda hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi. Bolalar qishki o'yinlarni intiqlik bilan kutadilar. Maydondan bolalar shodon kulgisi eshitiladi.





[f] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda pastki lab yuqori
tish qirralariga yaqinlashgach,
oʻrtasida tor boʻshliqdan havo
oʻtib tovush hosil boʻladi.



Fil soʻzini yozganda,
Fozil boʻldi koʻp hayron.
“F” harfiga oʻxshardi,
Singlisi chizgan bayroq.



fil	fosh	lof	fikr	fasl
fan	saf	naf	film	farz



Farzandim – dilbandim,
Farzandim – asal qandim.
Har onim fido boʻlsin,
Farzandim oʻynab-kulsin.



1-may – Favvoralar kuni.

Billur kabi tomchilar,
Raqsga tushgandek boʻlar.
Bu neligin kim aytar?
Udir goʻzal favvoralar.
Billur kabi tovlanar,
Dilga huzur baxsh etar.
Suvin purkaydi joʻshqin.
Favvoralar berar salqin.





fut-bol
daf-tar
kon-fet

na-fo-sat
fa-ro-von
fav-vo-ra

fa-ol
filtr

fil
film

fa-zo
fa-zo-gir

far-zand
far-rosh



Rasmlar orasidan topishmoqning javobini toping.

Qirg'oqlarni birlashtirib,
Masofani yaqin qilar.

Maydonlarda u turar,
Shiddat bilan otillar.

Bolalarni maftun etar,
Kun o'tgani bilinmay ketar.



o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	



Koinot – F a z o

Quyosh –

Atrof –

Film –

Sof –





[ch] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda tishlarni bir-biriga
yaqinlashtiring. Tilni yuqori kurak
tishlarga tekkizib ayting.



Chch

Cho'mich, chelak va choynak,
"Ch"dan boshlanar bilsak.
Ikki belgi bir bo'ldi,
E'tibor berib ko'rsak.



chol
choy


chō-ra
chim

chaq-moq
chaq-qon

cha-qa-loq
ol-cha



Top-sak ham-ki bir u-shoq,
Ta-lash-ma-yin yey-miz biz.
A-hil-lik no-ni har chog'
Ba-ra-ka-li dey-miz biz.



Chorvoq, Chimyon, Chortoq, Chirchiq so'zlari
nima uchun bosh harf bilan yozilgan?



Chimyon tog'i

Dam olish kuni oilamiz bilan birga
Chimyon tog'iga chiqdik. U yerda qor ko'p
edi. Akam chang'ida, men chanada maza
qilib uchdik. Tog' havosi barchamizga yoqdi.



cha-la
cha-na
cha-man
choy
choy-nak
cho-ra


chim
chi-nor
chi-girt-ka

ko'-cha
bog'-cha
ar-cha

chuch-va-ra
chuch-mo-ma
chor-ra-ha



Ga-la bo'-lib ke-lib-san,
Me-va-lar-ni cho'-qib-san.
Cho'-qi-ma-gin sen hoy, hoy,
Chum-chuq, chum-chuq-voy.



Bilasizmi?

Uy hayvonlari bolalariga alohida nom beriladi. Mushuk bolasi mushukcha, itniki kuchukcha, ot bolasi toychoq, qo'y bolasi qo'zichoq, echki bolasi uloqcha, tuya bolasi bo'taloq, sigir bolasi buzoqcha deb ataladi. Siz yana qaysi hayvon bolalari nomlarini bilasiz?



o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	ch





[j] tovushi – undosh tovush.
U ikki xil talaffuz qilinadi:
[j] – portlab jo'ja,
[j] – sirg'alib jirafa.



Soyabonning bandini
Eslatar "J"ning shakli.
Ilmoqqa ham salgina
O'xshab ketadi asli.



joy
jag'
jam

jim
ja-zo
jo'-ja

jiz-za
jiy-da
jan-nat

jum-boq
jim-mit
jim-ji-loq

jo

ej

jum

jun

jon

jef


guj



Jo'ja

Jo'jalar juda qiziq,
Oyoqlari qiltiriq.
Chiqishibdi tuxumdan,
Oppoq kichkina xumdan.
"Chip-chip" deya so'zlashar,
Oyisini izlashar.
Tovuq so'zin uqishdi,
Yerdan uvoq cho'qishdi.

Po'lat Mo'min



**Oltin tojli
xo'roz**





jar	ju-ma
o'l-ja	jum-la
o'-jar	jum-boq
jim	jaj-ji

ja-nub	ja-nob	aj-dar	ja-mo-at
ja-sur	jar-lik	jo-zi-ba-dor	ja-vob-gar



Yashash joyi Afrika,
Bo'yni uzun u tikka.

--	--	--	--	--	--

Ko'kdan tushdi bir ustun,
Usti baxmal, ichi un.

--	--	--	--	--

Jozibador kuy

Jasur juda kichik yoshidan musiqa asboblarini chalishga qiziqar edi. U jajji qo'lchalari bilan pianinoni chala oladi. Musiqa darsida g'ijjak asbobini ko'rib qiziqib qoldi. Jasurga g'ijjakda chalingan kuy juda yoqdi. Jonkuyar ustoz Jamila opa Jasurga g'ijjak chalish sirlarini o'rgatishga so'z berdi.



o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	ch
j	





[x] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda lablar biroz ochiq,
til bilan tomoqning orqa devori
siqiladi va tovush hosil qilinadi.



“X” harfi-chi bizga, yodga solar qaychini,
Qo’rqmang, hech narsani kesmas ammo.
Xo’roz, xabar, xalq, xazina so’zlarini,
“X” bilan yozing, tug’ilmaydi muammo.



xil

xon

xa-mir

xo-tir-jam

xat

xom

xo-na

xush-vaqt

xa-tar

xos

xa-to

xu-su-san

xo

ex

xum

xun

xon

xef

xuj



Yaxshilik

Xonzoda bugun maktabga
kelmadi. U kasal bo’lib qoldi.
Bundan Xolida xabar topdi. U
onasidan Xonzodaning holidan
xabar olishga ruxsat so’radi.

Xonzoda dugonasi Xolidani
ko’rib juda xursand bo’ldi.
Xolida dugonasidan xasta bo’lib
qolishining sababini so’radi.

Ertasi kuni sinf rahbari
sinfga kirib kelishi bilan Xolidani





xol	xa-to
xo-la	xa-tar
xon	das-tur-xon

o	a
i	u
o'	e

six	xalq	ruх-sat	xush-xa-bar
mix	xavf	gul-xan	xo-si-yat-li
xush	xulq	poy-taxt	xoh-la-moq



Boshi taroq, dumi o'roq.



Muz saroyi

Bu – muz saroyi. Unda ko'pgina qishki o'yinlarni tomosha qilish va tashkil etilgan to'garaklarga qatnashish mumkin. Ayniqsa, xokkey o'yini juda qiziqarlidir.

Xokkey – bu mardlar o'yini. Xokkeychilar chaqqonlik bilan harakatlanadilar. Xullas, bu sport turi tezkorlik, epchillik va hushyorlikni talab etadi.



t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	ch
j	x





ng tovushi – undosh tovush.
Talaffuzda til yuqori kurak tish
orqasiga ko'tariladi va havo
burun orqali chiqadi.



Boshqa-boshqa ikki harf,
Ishlar bitta tovush uchun.
“N” va “G”ning juftligi,
Ko'rsatar dimog' kuchin.




ong
tong
bong

rang
teng
chang

si-ngil
de-ngiz
ko'-ngil

yu-ring
o'-ti-ring
yu-gu-ring



Tong

Tong otmoqda, sutdek oppoq tong,
Xayrlashib tun bilan shodon.
Tong ortidan quyosh urib bong,
Chiqar – nurin sochib har tomon.



ng

tong
rang
keng
teng
ming
bong

erta tong
tilla tanga
to'q rang

ko'k dengiz
uzum uzing
kitob o'qing

bilib oling
javob bering
sekin yuring



Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Yolg'onning umri qisqa.

Rang-barang olam

Bilasizmi, tabiatda ranglar issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Sariq, zarg'aldoq, qizil – issiq ranglar. Binafsharang, ko'k, yashil esa sovuq ranglardir.



o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	ch
j	x
ng	





Tutuq belgisi tovushni bildirmaydi. Tutuq belgisidan oldin kelgan unli tovushni biroz cho'ziq, undoshni esa keyingi unidan ajratib talaffuz qiling.



Vergulga o'xshar shaklim, "O'" va "G'" dan bor farqim.



a'lo
she'r

ma'no
e'lon

sur'at
jur'at


Ra'no
Tal'at



E'lon

Diqqat, diqqat, diqqat! Tasviriyl san'atni yoqtirgan, uning sirlarini o'rganishni istagan bolalar uchun "San'at g'unchalari" deb nomlangan to'garak tashkil etildi.
Rahbar: Ma'mura Tal'atovna
Haftaning chorshanba va juma kunlari.





da'vo
qal'a
ne'mat
E'zoza



So'zingda ma'no bo'lsin,
Va'dangda vafo.

Na'matak


Ariq bo'yi chakalak,
Qo'lga kirar tikanak.
Buvimlar hech qo'ymagach,
Teryapmiz biz na'matak.
Derlar: koni foyda bu,
Kasallik bor joyda bu.
Shamollashga davodir,
Qaynoq sut-u choyda bu.
Sariqlikni yo'qotar,
Qizamiqqa o'q otar,
Boydin darmondoriga,
Quvvatingiz uyg'otar.

Xayriddin Saloh

o	a
i	u
o'	e

t	n
l	m
d	k
b	y
r	q
s	z
v	p
g	g'
h	sh
f	ch
j	x
ng	,





Alifboda bordir necha harf?
 O'yla aqling qilib sarf!
 Go'yo ko'zi, burni bor,
 Har bir harfning o'rni bor.

Har bir harf buyuk erur,
 Har biri juda zarur.
 Adashtirmagin zinhor,
 Savod senga bo'lsin yor.




Zumrad
va
Qimmat





Qaysi harflar topishmoqning javobi bo'la oladi?



Ch +  =

D +  =

Ch +  =

Ch +  =



Topishmoqning javobini ketma-ketlikda bo'sh kataklarga joylashtirib, so'z hosil qiling.

Archada bor, tolda yo'q,
Asalda bor, bolda yo'q.

Lochinda bor, g'ozda yo'q,
Laganda bor, tosda yo'q.

Ishkomda bor, tokda yo'q,
Ignada bor, chokda yo'q.

Fazoda bor, yerda yo'q,
Filda bor-u, sherda yo'q.

Baliqda bor, ko'lda yo'q,
Barmoqda bor, qo'lda yo'q.

Olovda bor, qo'rda yo'q,
Ohakda bor, bo'rda yo'q.

O'tkir Hoshimov





Qish fasli haqida nimalar deyish mumkin?



Yangi yil salomi

Yangi orzu, yangi shon,
Tilaklari bir jahon.
Dunyo bo'lsin deb omon,
Kulib kelgan yangi yil,
Dil to'ridan bir olam
Salom senga, assalom!

Bag'ri to'la quvonch, baxt,
Mangu tinchlik qilib ahd,
Yigitday g'ayrat-u shahd
To'lib kelgan yangi yil,
Qalb to'rida bir olam
Salom senga, assalom!

Qambar Ota



Q I R

Q B O' N

Q L Q

R A

Q O' L

Q O R



**Yangi yil
oldidan**





Buni toping, qizlarim

G'afur G'ulom

- To'ni silliq tuki yo'q,
Hammasi to'q, po'ki yo'q.
Ichi qizil, ko'ki yo'q,
Uni cho'qolmas chumchuq.
Bu nima, qizim Qunduz?
– Bumi, dadajon... .



--	--	--	--	--

- Marjon-marjon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko'rmasdan o'ylab boq.
Sen ayt, Mamlakat qizim,
– Bumi, dadajon... .



--	--	--	--	--



Murabbosi mazali.
Palovga bossa bo'lar,
Podvalga ossa bo'lar.
Tishlab ko'rib ayt, Mehri,
– Bumi, dadajon... .



--	--	--	--

– Mayda yoqutday qizil,
Shirin nordon xilma-xil.
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.
Sen ayt-chi, qizim Gulnor,
– Bumi, dadajon... .



--	--	--	--





Suhbati shirin do'stim,
Turgani bilim do'stim.





Non bilan Kitob

- Hayotda eng zo'ri ham, aziz ham sensan. Meni ham sen dunyoga keltirib, o'stirib voyaga yetkazding. Shu boisdan bir umr senga ta'zim qilishni o'zim uchun burch deb bilaman, – dedi Aql Kitobga.
- O, do'stinam, menga kelganda zehningni jilovlay olmay, sal bo'shashtirib yubording. Bilmasang bilib, qulog'ingga quyib ol. Mendan ham azizroq narsa bor. Bu – non! Men non oldida qarzdorman, – javob qildi Kitob.
- Non? – taajjublandi Aql.
- Ha, Non...

Abdulla Avloniy



1. Nega Kitob Nonni o'zidan ulug' dedi?
2. Siz nima deb o'ylaysiz, dunyoda yana qanday ulug' narsalar bor?
3. Nima uchun Kitob Aqlga do'st deb murojaat qildi?
4. Aql so'zini qanday so'z bilan almashtirish mumkin?





Qizg'anchiq it (ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir it bor ekan. U juda ochko'z ekan. Bir kuni shu it sheriklari bilan talashib, kattakon bir suyakni olib qochibdi. U suv ustidagi yakka cho'pdan o'tayotsa, suvda bir it og'zida katta suyak tishlab, ko'zlarini olaytirib, itga tikilib turgan emish. It: "Irr-ir-ir", – deb tishini irjaytirgan ekan, suv ichidagi it ham tishini irjaytiribdi.

Qizg'anchiq it uning og'zidagi suyakni ham tortib olmoqchi bo'libdi va "Hap!" – deb itga tashlanibdi. "Hap!" deyishi bilan og'zidagi suyak o'zidan oldin "Cho'lp!" etib suvga tushib ketibdi. Qizg'anchiq it rosa shalabbo bo'lib, suyagidan ham ajralib, suvdan chiqibdi.



1. It suyakni qayerdan oldi?
2. U suvda nimani ko'rib qoldi?
3. Siz itga qanday baho berasiz?





O'QISHNI BILSANG O'ZING

Qanday yaxshi, qanday soz,
O'qishni bilsang o'zing,
Yordam kutib oyingdan
Jovdirab turmas ko'zing.
"O'qing" deya buvingga
Yolvorib turmay,
Yoki opajoningga
Yalinib yurmay,
Kutib, chorlab
O'tirmasdan,
Shart o'qiysan
Tutilmasdan.

Tursunboy Adashboyev





N.K. Azizova

Alifbe darsligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik / N.K. Azizova – Toshkent:
"Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 88 b.

UO'K 373.3.016:811.512.133(075.3)

ISBN 978-9943-9686-6-0

KBK 74.202.4

81.2Y36-922

A 36

Nodira Azizova

Alifbe 1-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Rassom
Kompyuterda sahifalovchi

*Sh. Muslimova
A. Sobitov
X. Serobov
D. Vetokhina
S. To'ychiyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 30.06.2023- yilda original-maketdan
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Kegli 18 n/shponli.

"Arial" garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog'oz.

Shartli b.t. 11. Hisob-nashriyot t. 0,25.

Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-259.

"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

